

**BIRINCHI O'ZBEK HUQUQSHUNOS QIZI**

**Raxmonberdiyev Sherdorbek**

Toshkent davlat yuridik universiteti

3-kurs talabasi

[@sherdorshukhratovich@gmail.com](mailto:@sherdorshukhratovich@gmail.com)

**Annotatsiya:** ushbu ilmiy maqolamizda yurtimizda tug'ilib o'sgan, davlat boshqaruvi, sud-huquq tizimida shuningdek bir qancha sohalarda faoliyat olib borgan O'zbek qizi Hadicha Sulaymonovaning qisqa hayot yo'li davomida ushbu mintaqaning huquq sohasiga qo'shgan salmoqli hissasini va xizmatlarini bat afsil yoritib beramiz.

**Kalit so'zlar:** fan arbobi, fan doktori, professor, akademik, sud ekspertiza

**Kirish.** Birinchi o'zbek huquqshunosi, Oliy sudga rahbarlik qilgan birinchi o'zbek sudyasi, mohir diplomat va eng ilg'or jadidlardan biri Xadicha Sulaymonova(1913-1965) Andijonda tug'ilgan.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi (1954), huquqshunoslik fanlari doktori (1951), professor (1952), O'zbekiston fanlari akademigi (1956), xususan, O'zbekistonda huquqshunoslikning vujudga kelishi va rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan olima. Shuningdek, Xadicha Sulaymonova O'zbekiston Fanlar Akademiyasi falsafa va huquq institutini (1958), Adliya vazirligi huzuridagi sud ekspertizasi ilmiy-tadqiqot institutini (1959) tashkil etish tashabbuskorlardan biri bo'lgan.

Xadicha Sulaymonova 1956-yilda Amsterdamda bo'lib o'tgan III xalqaro sotsiologlar Kongressida, 1960-yilda Londonda birlashgan Millatlar Tashkilotining ikkinchi xalqaro Kongressida va 1961-yilda Birlashgan Arab Respublikasida bo'lib o'tgan Osiyo va Afrika ayollarining birinchi konferentsiyasida so'zga chiqib, ko'p iste'dodli o'zbek ayolini dunyoga tanitdi. Yaponiya, Hindiston, Xitoy, Praga (Chexoslovakiya), Seylon (Shri-Lanka) kabi ko'plab xorijiy mamlakatlarda o'tkazilgan ilmiy anjumanlarda qatnashgan. U o'zbek ilm-fani, o'zbek huquqshunosligi, davlatchiligi va uning tarixini g'urur bilan targ'ib qildi, ko'plab davlatlar bilan diplomatik aloqalar o'rnatishda faol ishtirok etdi. Xorijiy davlatlar, Olimning faoliyati davomida mamlakat ayollarining ta'lim olgani yoki ularning davlat tashkilotlarida ishtirok etishiga alohida e'tibor qaratganini kuzatishimiz mumkin. Masalan, 1957-yil 1-may holatiga ko'ra, vazirlik xodimlarining 41 nafaridan 15 nafari, mahalliy sudlarning 87 sudyasidan 25 nafari, 70 notarius xodimidan 53 nafari ayollar bo'lgan. Ushbu raqamlar bevosita Hadicha

Sulaymonovaning mamalakat ayollariga bergen e'tibori va qo'llovi natijasi edi<sup>44</sup>.

Olimaning ko'p qirrali va mazmunli turmush tarzi butun umri davomida avlodlarga namuna sifatida tarix sahifalarida oltin harflar bilan yozilgan.

**Asosiy qism.** Hadicha Sulaymonovaning bolalik yillari Andijonda o'tdi va mahalliy rus-tuzem maktabini yakunladi. Keyin yurist bo'lish orzusida, 1931-yilda Sovet qurilishi va huquqi instituti tayyorlov kursiga qabul qilindi va bir yil davomida o'qidi. Kelasi yil esa, Toshkentda tashkil etilgan Jahon Obidova nomidagi Sovet qurilishi va huqui institute huquq fakultetining 2-kursiga qabul qilindi va huquqshunoslik uchun ildam qadamlar tashladi.

Ushbu davrda Markaziy Osiyo mintaqasida sud-huquq tizimi isloh qilinmagan, haligacha qozilik, shariat sndlari faoliyat ko'rsatar edi. Bu esa bo'lajak olimaning faoliyatiga yanada turtle bo'lar edi. Oradan to'rt yil o'tib, ushbu institutning ilk bitiruvchilari uchun diplom topshirish marosimi bo'lib o'tdi. O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya komiteti raisi Yo'Idosh Oxunboboyev tomonidan bitiruvchilarga diplom topshirildi, ular qatorida Hadicha Sulaymonovaga ham. Sudyalik orzusida xalq sudyasi sifatida o'z faoliyatini boshladi, ko'p vaqt o'tmay esa, 22 yoshida Oliy Sud a'zoligiga saylanadi. 1938-yilda Moskva davlat yuridik instituti jinoyat huquqi kafedrasiga aspirant sifatida kirdi. Keyingi faoliyati esa, bevosita ona vatanida o'tdi.

Umrini oxiriga qadar Toshkentda yuridik institutda pedagoglik faoliyati bilan shug'ullandi va 1954-yilda rektor lavozimiga tayinlandi va shu yilda "O'zbekiston SSRda faoliyat ko'rsatgan fan arbobi" faxriy unvonini qabul qilib oldi. Oradan ikki yil o'tib ilm-fanga qo'shgan hissasi munosib baholandi va O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi A'zoligiga qabul qilindi.

Olimaning keyingi faoliyati bevosita Adliya vazirligi bilan bog'liq edi. Pedagoglikdan birdaniga Adliya vaziri lavozimiga munosib ko'rildi va ushbu lavozimni qabul qilib oldi. Ushbu muassasadagi faoliyati juda samarali bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, sud tizimi uchun juda muhim bo'lgan muammoli vaziyatlarga yechimlar topildi va hujjatlashtirilib sndlarga yuborildi, natijada qiyin caselarga ham sndlар adolatli yechim topa olishdi. Bezarilik, mulkni o'g'irlash, transport avariysi kabi huquqbazarliklar shular jumlasidandir. Uning vazirligi davrida xotin-qizlarning ham davlat boshqaruvi, vazirlik va sud-huquq tizimidagi o'rni ham sezilarli o'sishga erishdi.

Aynan Hadicha Sulaymonova sud-huquq tizimini, sud-tergov institutini rivojlantirish maqsadida kriminalistika sohasiga kata urg'u berdi. Olimaning tashabbusi bilan 1958-yil 24-yanvarda Toshkent sud-ekspertiza ilmiy-tadqiqot

<sup>44</sup> Maxsatjonovna, H. N. (2022). Ladies of Andijan Receive a Dignified Place in the History of State and Public Governance. *Eurasian Journal of History, Geography and Economics*, 7, 64-69.

instituti tashkil topdi. Hozirda ushu institut aynan Hadicha Sulaymonova nomi ostida faoliyat olib bormoqda.

1995-yil 22-iyunda, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng Respublikada sud ekspertizasi faoliyatini takomillashtirish, bu sohada ilmiy izlanishlarni rivojlantirish, odil sudlovni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining ekspertiza xizmatini rivojlantirish to'g'risida"gi 234-sonli qaroriga asosan, Toshkent sud-ekspertiza ilmiy-tadqiqot instituti Respublika ilmiy-tadqiqot kriminalistika markaziga aylantirildi va unga Respublika sud ekspertiza masalalari bo'yicha ilmiy-uslubiy hamda muvofiqlashtiruvchi idora mavqeい berildi.<sup>45</sup>

1964-yildan boshlab esa, Hadicha Sulaymonova respublika Oliy Sudi raisi sifatida o'z faoliyatini davom ettirdi. Shu munosabat bilan Y.S.Nasriddinova shunday yozadi, "Oliy Sud lavozimi juda ma'suliyatli. Hadicha Sulaymonovaning Oliy Sud raisligiga ko'tarilishi partiya va xalqning mehnatkash xotin-qizlarga ko'rsatayotgan yuksak ishonchining yana bir ifodasıdır."<sup>46</sup>

Hadicha Sulaymonova uzoq va og'riqli kasallik natijasida 1965-yil 26-noyabrda bevaqt vafot etdi.

**Xulosa.** Hadicha Sulaymonova hayot yo'li davomida ayollarning huquq va erkinliklarini ta'minlash va mustahkamlash, ularning nafaqat oilada, balki jamiyatdagi mavqeini oshirishga alohida e'tibor qaratdi. Uning yordami bilan advokat ayollar soni ikki baravar ko'paydi. Ayollar tobora ko'proq rahbarlik lavozimlariga tayinlandi. Ularning ajralmas huquqlari qonunchilik darajasida mustahkamlandi. Xadicha Sulaymonova o'sha davr uchun odatiy bo'lgan ayollarning mavqeい haqidagi odamlarning fikrini o'zgartira oldi va ular erkaklar bilan teng ravishda shaxs sifatida rivojiana olishlarini, shuningdek, buni uy xo'jaligi bilan birlashtira olishlarini isbotladi.

Bugungi kunda Xadicha Sulaymonovaning huquqshunoslik sohasiga qo'shgan ulkan hissasi O'zbekiston xalqi tomonidan yuqori baholanmoqda. Atoqli akademik ayol xotirasiga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida Xadicha Sulaymonova nomidagi Respublika sud-ekspertiza markazi tashkil etildi. Ish yurituvlari va dissertatsiyalari hanuzgacha mamlakatimizning ta'lim va huquqiy tizimida qo'llanilmoqda.

<sup>45</sup> [http://sudexpert.uz/?page\\_id=61#page-content](http://sudexpert.uz/?page_id=61#page-content)

<sup>46</sup> Khakimov M.Kh., Akhmedov F., Saidov A.Kh. Hadicha Sulaymonova khukukshunos, olima, davlat arbobi. Tashkent., Uzbekistan.1993.S. 30-31.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

Khakimov M.Kh., Akhmedov F., Saidov A.Kh. Hadicha Sulaymonova khukukshunos, olima, davlat arbobi. Tashkent., Uzbekistan.1993.S. 30-31;

Maxsatjonovna, H. N. (2022). Ladies of Andijan Receive a Dignified Place in the History of State and Public Governance. *Eurasian Journal of History, Geography and Economics*, 7, 64-69;

[http://sudexpert.uz/?page\\_id=61#page-content](http://sudexpert.uz/?page_id=61#page-content);

Sulaymanova Khadicha Sulaymanovna. National Encyclopedia of Uzbekistan (Uzb.) Volume 8. Archived from the original on April 7, 2012.